



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti




No8(2)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



*Elektron nashr. 234 sahifa,
12-avgust, 2026-yil.*

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oğlu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

The Role of English Collocations, Idiomatic Expressions, and Phraseological Units in Developing Communicative Competence in Higher Education	10
<i>Alimov Jamshid Ravshanovich</i>	
Milliy xoslangan lisoniy birliklarni teglash tamoyillari	16
<i>Yorkulov Zafarjon Bakirovich</i>	
Oila a'zolari o'rtasidagi o'zaro tushunishning shaxs kognitiv rivojlanishiga ta'sirining psixologik xususiyatlari	20
<i>Vaydulla Madinabonu Muxtasam qizi</i>	
O'qituvchilar darslarni qanday qiziqarli tashkil etishlari mumkin?	26
<i>Dilnura Rustamovna Xamrayeva</i>	
Tarbiya texnologiyasi – talabalarda ilmiy va sinergetik dunyoqarashni shakllantirish omili sifatida	33
<i>Mamadaliyev Kamolidin Rahmatullayevich</i>	
Maktab direktor maslahatchilarida strategik boshqaruv tafakkurini rivojlantirishning psixologik omillari	40
<i>Rahmatova Nasiba Sobirovna</i>	
Umumta'lim maktablarida harbiy-vatanparvarlik tarbiyasini sinfdan tashqari faoliyat orqali takomillashtirishning pedagogik-metodik tizimi	46
<i>Urinbayeva Dilfuza Abdumannobovna</i>	
Integrativ ta'lim texnologiyalari asosida bo'lajak geografiya o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish	50
<i>Xoldavlatova Gavhar Normaxmatovna</i>	
Klaster asosida TVET tizimida pedagogik innovatsiyalar	55
<i>Sobir Azizov</i>	
Muammoli ta'lim texnologiyasi orqali talabalarining kreativ fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish: "muammo" divergent–konvergent o'quv sikli	57
<i>Djumabayev G'ulomjon Xalillayevich, Yusupov Muxtorbek Roximovich</i>	
Oliy ta'lim muassasalari jismoniy tarbiya darslarida regbi elementlarini o'rgatishning tashkiliy-metodik asoslar	62
<i>E. E. Jumayev</i>	
Autentik materiallar asosida bo'lajak nemis tili o'qituvchilarining til ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasining eksperimental samaradorligi	65
<i>Jumayeva Gulxan Amrullayevna</i>	
Aleksandr Nil pedagogik ta'limotida shaxs erkinligini rivojlantirish mexanizmlari: ingliz filologiyasi talabalari misolida	71
<i>Atamirzayev Bahrom Bahodir o'g'li</i>	
TPACK modeli asosida ingliz tilida kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishning adaptiv metodik tizimi	75
<i>Omonova Maftuna Shermatovna</i>	
Multimodal vizual tayanchlar va flashcard asosidagi topshiriqlar orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarining ingliz tilidagi og'zaki nutq ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasi	82
<i>Sevara Alimurodova, Ayubova Saida</i>	
Raqamlashtirish jarayonida elektron ta'lim resurslarini yaratishning metodik asoslarini takomillashtirish	88
<i>Nurmaxanov Kayrat Erpayizovich</i>	
Modulli ta'lim texnologiyalari orqali o'quvchilarda mustaqil fikrlashni shakllantirishning pedagogik asoslari	95
<i>Poyonova Fazilat Olimovna</i>	
Individual ta'lim sharoitida talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlash samaradorligini pedagogik tajriba-sinov va matematik-statistik tahlil asosida baholash	100
<i>Gulbaxor Abdullayevna Gaynazarova</i>	



Oliy ta'lim muassasalarida raqamli menejment tizimlarini joriy etish muammolari va ularni bartaraf etishning samarali yo'llari	106
Matnazarov Hurmatbek Egamberganovich	
Umumiy o'rta ta'lim maktablarida ta'lim sifatini boshqarishda sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari	110
Sodiqov Rafikjon Turobjon o'g'li	
Bo'lajak tarbiyachilarning liderlik-boshqaruv kompetentligini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari ...	114
To'xtayeva Dilrabo Nematovna	
Inklyuziv ta'lim: mohiyati, tamoyillari	119
Choriyeva Muxlisa Jumamurodovna	
The Role of Neuromuscular Dentistry in Dental Practice	123
Turayev Alimjan	
Orthodontics' Digital Transformation (Literature Review)	128
Khusanbaeva Jasmin Shavkatovna, Xazratov A. I.	
O'zbekiston SSRda ta'lim islohotlari davrida pedagogika bilim yurtlari faoliyatida o'qituvchilarni tayyorlash jarayonlari va amaliy muammolar	136
Mamatkulova Maxfuza Kozimovna	
Application of Mechanotherapy Techniques in Oral and Craniofacial Surgical Methodologies (Literature Review)	140
Marufova Farangiz Gayratovna	
Theoretical Foundations for Developing Communicative Competence of Future Doctors	147
Nasimova Shahnoza Ziyodullayevna	
Формирование функциональной грамотности и "гибких навыков" (Soft Skills) у учащихся начальных классов в контексте реализации национальной учебной программы Узбекистана	152
Ю. С. Тажиева	
Talabalarda mustaqil ta'lim olish faoliyatini rivojlantirish metodlari	156
Jabborov Toxirjon Maqsudali o'g'li	
Ingliz va qoraqalpoq tillaridagi onim komponentli frazeologizmlarning lingvomadaniy xususiyatlari	160
Koyshekenova Tatyana Kenesariyevna	
Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining ijodiy-metodik kompetentligini rivojlantirish texnologiyasi	164
Qo'shaqov Farrux Furqat o'g'li	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning kognitiv faollikni oshirishning pedagogik usullari	169
Xoldarova F. M.	
Ingliz tili darslarida ixtisoslashtirilgan maktab o'quvchilarining kreativ kompetentligini rivojlantirish metodikasi	172
Madaminova Muzifa Shukurullo qizi	
Sport ta'limi yo'nalishidagi o'quvchilarining generativ sun'iy intellekt kompetensiyasini baholash mezonlari va indikatorlarini takomillashtirish	178
Nematova Rushana Nemat qizi	
Inklyuziv ta'lim sharoitida koxlear implantli bolalarning eshituv-nutqiy faoliyatini pedagogik tashkil etish metodikasi	184
Mirzayeva Umida Inamovna	
Umumiy o'rta ta'lim muassasasida ijtimoiy-madaniy muhitni rivojlantirishning ijtimoiy-pedagogik zaruriyati	188
Malikova Dilrabaxon	
Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining kasbiy-subyektiv pozitsiyasini rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari	194
Temirova Shoxsanam Komilovna	
O'zbek tilidagi lingvomadaniy kollokatsiyalarning assotsiativ-semantik xususiyatlari	201
Boymirova Dilshoda Oblayor qizi	
Методы развития компетенций будущих учителей начальной школы в области создания текстов	208
Хаитова Нодира Бафроевна	

Inklyuziv maktabgacha ta'limda bolalarning ijtimoiy-psixologik moslashuvida madaniy-tarixiy va ekologik yondashuvlar integratsiyasi	216
Mengliyeva Gavhar Ibrohim qizi	
Maktabgacha ta'lim jarayonida induktiv metodlardan foydalanishning xorijiy tajribasi	220
Mirazimova Muxabbat Normatovna	
Virtual muzeylar orqali tarixiy tafakkurni rivojlantirishning pedagogik modeli	225
To'ranazarova Muxlisaxon Davlatjon qizi	
Қорақалпоқ, туркман ва инглиз эртақларида образли нутқнинг миллий моделлари: фразеологизм, ранг ва маиший тимсоллар	230
Жепбарова Саят Курбанмиратовна, Жаумитбаева Перийзат Караматдиновна	

INGLIZ TILINI O'RGANISHDA MOTIVATSIYA VA O'QUVCHILARNI RAG'BATLANTIRISH USULLARINING AHAMIYATI

Sirojov Daler Kironboyevich

Assistent, Nizomiy nomidagi O'zbekiston Milliy pedagogika universiteti

Annotatsiya: Mazkur maqolada ingliz tilini o'rganish jarayonida motivatsiyaning o'rni va uning o'quvchilarning o'quv faoliyatiga ta'siri tahlil qilinadi. Ichki va tashqi motivatsiyaning mazmuni, ularning chet tilini o'zlashtirishdagi ahamiyati ilmiy manbalar asosida yoritilgan. Shuningdek, zamonaviy pedagogik texnologiyalar, interfaol metodlar va raqamli ta'lim vositalari orqali o'quvchilar motivatsiyasini oshirishning samarali usullari tavsiya etiladi. Tadqiqot natijalari motivatsiya o'quvchilarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish, mustaqil ta'lim ko'nikmalarini shakllantirish hamda ta'lim samaradorligini oshirishda muhim omil ekanligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: motivatsiya, ingliz tili, chet tili ta'limi, ichki motivatsiya, tashqi motivatsiya, interfaol metodlar, kommunikativ kompetensiya.

Abstract: The article examines the importance of motivation in English language learning and its influence on students' academic achievement. The concepts of intrinsic and extrinsic motivation are discussed based on modern educational and psychological theories. Furthermore, effective strategies for enhancing students' motivation through innovative teaching methods and digital technologies are presented. The findings indicate that motivation plays a significant role in developing communicative competence, fostering independent learning skills, and improving the quality of English language education.

Key words: motivation, English language learning, intrinsic motivation, extrinsic motivation, communicative competence, teaching methods.

Аннотация: В данной статье анализируется роль мотивации в процессе изучения английского языка и её влияние на успеваемость студентов. На основе научных источников раскрываются содержание внутренней и внешней мотивации и их значение в освоении иностранного языка. Также рекомендуются эффективные методы повышения мотивации студентов с помощью современных педагогических технологий, интерактивных методов и цифровых инструментов обучения. Результаты исследования показывают, что мотивация является важным фактором развития коммуникативной компетенции студентов, формирования навыков самостоятельного обучения и повышения эффективности образовательного процесса.

Ключевые слова: мотивация, английский язык, обучение иностранным языкам, внутренняя мотивация, внешняя мотивация, интерактивные методы, коммуникативная компетентность.

KIRISH

Bugungi globallashuv jarayonida ingliz tili xalqaro muloqot, ilm-fan, texnologiya va biznesning asosiy tillaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Shu sababli dunyoning ko'plab mamlakatlarida xorijiy tillarni, ayniqsa, ingliz tilini samarali o'qitishga alohida e'tibor qaratilmoqda. O'zbekistonda ham ta'lim tizimini modernizatsiya qilish doirasida chet tillarini o'qitish sifati va samaradorligini oshirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi ^[1].

Tilni o'rganish murakkab psixologik va pedagogik jarayon bo'lib, u nafaqat o'quvchining intellektual salohiyatiga, balki uning darsga bo'lgan qiziqishi, ehtiyoji va motivatsiyasiga ham bevosita bog'liq. Ko'plab tadqiqotchilar motivatsiyani chet tilini muvaffaqiyatli egallashning eng muhim omillaridan biri sifatida e'tirof etadilar (Gardner, 1985; Dörnyei, 2001). Motivatsiya o'quvchini maqsad sari yo'naltiradi, o'quv faoliyatini faollashtiradi va yuzaga keladigan qiyinchiliklarni yengib o'tishga undaydi ^[2; 3].

Psixologik nuqtai nazardan motivatsiya insonning muayyan faoliyatni amalga oshirishiga turtki beruvchi ichki va tashqi omillar yig'indisidir. Ta'lim jarayonida esa u o'quvchilarning bilim olishga bo'lgan ehtiyoji, qiziqishi va o'z oldiga qo'ygan maqsadlariga erishish istagini ifodalaydi. Motivatsiyasi yuqori bo'lgan o'quvchilar



yangi bilimlarni faol o'zlashtiradilar, mustaqil izlanadilar va o'z bilimlarini muntazam takomillashtirib boradilar. Aksincha, motivatsiyaning pastligi o'quvchilarning darsdagi faolligi va o'zlashtirish ko'rsatkichlarining pasayishiga olib kelishi mumkin ^[4].

Ingliz tilini o'qitishda motivatsiya ayniqsa muhim hisoblanadi. Chunki tilni egallash muntazam mashq qilish, tinglash, gapirish, o'qish va yozish ko'nikmalarini birgalikda rivojlantirishni talab etadi. Agar o'quvchi tilni o'rganishdan shaxsiy manfaat yoki ehtiyojni his qilsa, u o'quv jarayonida faolroq ishtirok etadi va yuqori natijalarga erishadi (Harmer, 2015). Shu sababli zamonaviy pedagogikada motivatsiyani shakllantirish va qo'llab-quvvatlash masalasi alohida ilmiy yo'nalish sifatida o'rganilmoqda ^[5].

Mazkur maqolaning maqsadi ingliz tilini o'rganishda motivatsiyaning nazariy asoslarini tahlil qilish, o'quvchilarni rag'batlantirishning samarali pedagogik usullarini yoritish hamda zamonaviy ta'lim texnologiyalarining ushbu jarayondagi ahamiyatini ilmiy jihatdan asoslashdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ta'lim jarayonida motivatsiya o'quvchining bilim olishga bo'lgan ehtiyoji, qiziqishi va maqsadga intilish darajasini belgilovchi asosiy psixologik omillardan biri hisoblanadi. Pedagogika va psixologiya sohalarida olib borilgan ilmiy tadqiqotlar motivatsiya o'quv faoliyatining samaradorligini oshirish, o'quvchilarning mustaqil fikrlashi va ijodiy yondashuvini rivojlantirishda muhim rol o'ynashini tasdiqlaydi ^[2; 3]. Motivatsiya tushunchasi lotincha movere – "harakatga keltirmoq" so'zidan kelib chiqqan bo'lib, insonni muayyan faoliyatni bajarishga undovchi ichki va tashqi omillar majmuini anglatadi. Til ta'limida motivatsiya o'quvchining xorijiy tilni o'rganishga bo'lgan qiziqishi, uni amaliy hayotda qo'llash istagi hamda o'z oldiga qo'ygan maqsadlariga erishish uchun sarflaydigan sa'y-harakatlarini ifodalaydi ^[1].

R. Gardnerning ijtimoiy-psixologik nazariyasiga ko'ra, xorijiy tilni muvaffaqiyatli o'zlashtirish faqat lingvistik bilimlar bilan emas, balki o'quvchining motivatsiyasi, til sohiblariga bo'lgan ijobiy munosabati va madaniyatlararo muloqotga tayyorligi bilan ham belgilanadi ^[1]. Z. Dörnyei esa motivatsiyani til o'rganishdagi eng kuchli omillardan biri sifatida baholab, o'qituvchining darsni tashkil etish usuli, sinf muhiti va o'quvchilar bilan muloqoti motivatsiyaning shakllanishiga bevosita ta'sir qilishini ta'kidlaydi ^[2]. Ichki motivatsiya o'quvchining shaxsiy qiziqishi, bilim olishdan zavqlanishi hamda o'zini rivojlantirish istagi bilan bog'liq bo'ladi. Bunday motivatsiya tashqi rag'batlarsiz ham yuzaga keladi. Masalan, ayrim o'quvchilar ingliz tilidagi filmlar, kitoblar yoki xalqaro muloqotga bo'lgan qiziqishi sababli tilni mustaqil ravishda o'rganishga intiladilar. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ichki motivatsiyaga ega bo'lgan o'quvchilar uzoq muddat davomida yuqori o'quv natijalarini namoyon etadilar hamda bilimlarni chuqurroq o'zlashtiradilar ^[3].

E. Deci va R. Ryan tomonidan ishlab chiqilgan O'zini o'zi belgilash nazariyasiga (Self-Determination Theory) ko'ra, ichki motivatsiya uchta asosiy psixologik ehtiyoj – mustaqillik (autonomy), kompetentlik (competence) va ijtimoiy yaqinlik (relatedness) qondirilganda rivojlanadi ^[3]. Shu sababli ingliz tili darslarida o'quvchilarga mustaqil tanlov imkoniyatini berish, ularning muvaffaqiyatini e'tirof etish hamda hamkorlikdagi faoliyatni tashkil etish ichki motivatsiyani kuchaytiradi. Tashqi motivatsiya esa mukofot, baho, sertifikat, ota-ona yoki o'qituvchi tomonidan beriladigan rag'bat, shuningdek, kelajakdagi kasbiy ehtiyojlar kabi tashqi omillar ta'sirida shakllanadi ^[3]. Hozirgi kunda ko'plab o'quvchilar IELTS, CEFR yoki boshqa xalqaro sertifikatlarni qo'lga kiritish, nufuzli oliy ta'lim muassasasiga kirish yoki xorijda ta'lim olish maqsadida ingliz tilini o'rganmoqda.

Tashqi motivatsiya o'quvchini dastlabki bosqichda faollashtirishda samarali vosita bo'lsa-da, faqat tashqi rag'batlarga tayanish uzoq muddatli natijalarni kafolatlamaydi. Agar o'quvchi faqat baho yoki mukofot uchun o'qisa, rag'bat yo'qolganda uning qiziqishi ham pasayishi mumkin. Shu bois, zamonaviy pedagogika ichki va tashqi motivatsiyani uyg'unlashtirishni tavsiya etadi ^[2]. Motivatsiyaning shakllanishiga ko'plab omillar ta'sir ko'rsatadi. Ularni shartli ravishda shaxsiy, pedagogik va ijtimoiy omillarga ajratish mumkin. Shaxsiy omillarga o'quvchining yoshi, qiziqishlari, o'ziga bo'lgan ishonchi, oldingi tajribasi va maqsadlari kiradi. O'z imkoniyatlariga ishongan o'quvchilar murakkab topshiriqlardan qo'rqmaydi va yangi bilimlarni faol egallashga harakat qiladi ^[7]. Pedagogik omillar esa o'qituvchining kasbiy mahorati, darsni tashkil etish usullari, baholash tizimi, o'quv muhiti hamda ta'lim texnologiyalaridan foydalanish bilan bog'liq. J. Harmerning fikricha, o'qituvchining ijobiy munosabati va qo'llab-quvvatlashi o'quvchilarning darsdagi faolligini sezilarli darajada oshiradi ^[5].

Ijtimoiy omillar qatoriga oila, tengdoshlar, jamiyat talablari va mehnat bozori ehtiyojlari kiradi. Bugungi kunda xalqaro ta'lim dasturlari, akademik almashinuv loyihalari va xorijiy ish beruvchilarning talablari ingliz tilini puxta o'rganishga bo'lgan ehtiyojni yanada kuchaytirmoqda. Bu esa o'quvchilarning motivatsiyasiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi ^[6].

Yuqoridagi nazariy qarashlar motivatsiya chet tilini o'rganishda nafaqat psixologik omil, balki ta'lim sifati va natijadorligini belgilovchi strategik omil ekanligini ko'rsatadi. Shuning uchun ingliz tili darslarida o'quvchilarning ichki qiziqishini rivojlantirish, ularni muntazam rag'batlantirish va zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar o'qituvchidan nafaqat fanni chuqur bilishni, balki o'quvchilarning o'quv faoliyatini samarali tashkil eta olishni ham talab etadi. Ayniqsa, ingliz tilini o'qitishda motivatsiyani shakllantirish o'quvchilarning til ko'nikmalarini rivojlantirish va dars samaradorligini oshirishning muhim shartlaridan biridir. Zamonaviy metodik yondashuvlar motivatsiyani oshirish uchun o'quvchini ta'lim jarayonining faol ishtirokchisiga aylantirish zarurligini ta'kidlaydi [6]. Interfaol metodlar o'quvchilarning mustaqil fikrlashini, hamkorlikda ishlashini va muloqot ko'nikmalarini rivojlantiradigan samarali pedagogik vositalardan biridir. Bunday metodlarda o'quvchi tayyor bilimni qabul qiluvchi emas, balki uni izlovchi va yaratuvchi sifatida ishtirok etadi.

Juftlik va kichik guruhlarda ishlash, "Aqliy hujum", "Klaster", "BBB", "Fishbone", "Case-study", "Debat" va "Role-play" kabi metodlar o'quvchilarning ingliz tilida erkin fikr bildirishiga imkon yaratadi. Dars davomida faol ishtirok etish esa ularda o'ziga bo'lgan ishonchni oshirib, ichki motivatsiyani kuchaytiradi [8]. Masalan, "Role-play" usulida o'quvchilar kundalik hayotdagi vaziyatlarni sahnalashtiradi. Mehmonxonada xona band qilish, aeroportda suhbatlashish yoki ishga qabul qilish jarayonini tasvirlash kabi mashg'ulotlar nazariy bilimlarni amaliy nutqqa aylantirishga xizmat qiladi. Natijada o'quvchilar tilni real hayot bilan bog'lay boshlaydi.

So'nggi yillarda raqamli ta'lim vositalarining keng qo'llanilishi ingliz tilini o'qitish metodikasida yangi imkoniyatlarni yaratdi. Multimedia taqdimotlari, elektron darsliklar, mobil ilovalar va onlayn platformalar darslarni yanada qiziqarli va samarali tashkil etishga yordam bermoqda [9]. Xususan, Quizlet yangi so'zlarni o'zlashtirishda, Kahoot! va Wordwall bilimlarni mustahkamlashda, Google Classroom hamda Microsoft Teams esa mustaqil ta'limni tashkil etishda samarali vosita hisoblanadi. Ushbu platformalar orqali o'quvchilar topshiriqlarni mustaqil bajaradi, natijalarini darhol ko'radi va o'z xatolarini tahlil qilish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu esa ularning o'quv jarayoniga bo'lgan qiziqishini oshiradi [10].

Shuningdek, sun'iy intellektga asoslangan vositalardan oqilona foydalanish ham til o'rganish samaradorligini oshiradi. Masalan, grammatik xatolarni tahlil qiluvchi dasturlar, talaffuzni tekshiruvchi ilovalar va ingliz tilida muloqot qilish imkonini beruvchi raqamli platformalar o'quvchilarning individual ehtiyojlarini hisobga olgan holda ta'lim olishiga xizmat qiladi. Bunday vositalar o'qituvchini almashtirmaydi, balki uning faoliyatini qo'llab-quvvatlovchi yordamchi resurs sifatida qaraladi [11].

Ko'plab ilmiy tadqiqotlarda o'qituvchi shaxsiyati motivatsiyani shakllantiruvchi eng muhim omillardan biri sifatida qayd etilgan [2]. O'qituvchining nutq madaniyati, darsni rejalashtirish mahorati, adolatli baholashi va o'quvchilar bilan ijobiy muloqot o'rnatishi sinfdagi psixologik muhitni belgilaydi. Dars davomida o'quvchilarni kichik yutuqlari uchun maqtash, konstruktiv fikr-mulohaza bildirish va xatolarni tanqid emas, balki rivojlanish imkoniyati sifatida baholash motivatsiyani oshiruvchi omillar hisoblanadi. Psixologlarning ta'kidlashicha, o'quvchi o'z mehnati qadrlanishini his qilsa, keyingi topshiriqlarni bajarishga ham ko'proq intiladi [3].

Bundan tashqari, o'qituvchi har bir o'quvchining individual xususiyatlarini inobatga olishi lozim. Chunki barcha o'quvchilar bir xil usul orqali motivatsiyalanmaydi. Ayrimlari ijodiy topshiriqlarga qiziqsa, boshqalari musobaqa elementlari mavjud mashg'ulotlarda faolroq ishtirok etadi.

Pedagogik amaliyotda o'yin elementlarini ta'lim jarayoniga integratsiya qilish (gamifikatsiya) motivatsiyani oshirishning samarali usullaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda [12]. Ballar yig'ish, darajalar (levels), virtual mukofotlar, reyting jadvallari va jamoaviy musobaqalar o'quvchilarda sog'lom raqobat muhitini shakllantiradi. Masalan, yangi mavzu bo'yicha viktorinalar tashkil etish, lug'at boyligini oshirishga qaratilgan onlayn musobaqalar o'tkazish yoki guruhlar o'rtasida kommunikativ topshiriqlarni bajarish darsni jonlantiradi. Bunday faoliyat davomida o'quvchilar bilim olishni majburiyat emas, balki qiziqarli jarayon sifatida qabul qila boshlaydi.

Motivatsiyani rivojlantirishning yana bir muhim sharti o'quvchilarda aniq va erishish mumkin bo'lgan maqsadlarni shakllantirishdir. Har bir dars boshida o'quvchilarga bugungi mashg'ulotdan kutilayotgan natijalarni tushuntirish, dars yakunida esa o'z faoliyatini baholash imkoniyatini yaratish ularning mas'uliyat hissini oshiradi [6]. O'z-o'zini baholash varaqalari, refleksiya kundaliklari va elektron portfoliolar o'quvchining shaxsiy rivojlanishini kuzatishga yordam beradi. Natijada o'quvchi o'z yutuq va kamchiliklarini mustaqil tahlil qiladi hamda keyingi bosqich uchun yangi maqsadlarni belgilaydi. Yuqorida keltirilgan metodlarning kompleks qo'llanilishi ingliz tili darslarining samaradorligini oshiradi, o'quvchilarning ichki motivatsiyasini kuchaytiradi hamda ularning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu bois zamonaviy o'qituvchi an'anaviy yondashuv bilan bir qatorda innovatsion metod va texnologiyalardan ham samarali foydalanishi zarur.

TAHLIL VA NATIJALAR

Ingliz tilini o'rganishda motivatsiyaning o'rni bo'yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, motivatsiya o'quv jarayonining samaradorligini belgilovchi muhim psixologik-pedagogik omillardan biridir. Xorijiy tilni o'zlashtirish jarayonida o'quvchining muntazam faoliyati, qiziqishi va maqsadga yo'naltirilgan harakati yuqori natijalarga erishishda katta ahamiyat kasb etadi [1; 2]. Gardnerning tadqiqotlarida xorijiy til o'rganishdagi muvaf-



faqiyat motivatsiya, o'quvchining munosabati va til o'rganilayotgan jamiyatga bo'lgan qiziqishi bilan bog'liqligi ta'kidlanadi^[1]. Dörnyei esa motivatsiya doimiy rivojlanib boruvchi jarayon ekanligini va unga o'qituvchi faoliyati, dars muhiti hamda o'quvchining shaxsiy maqsadlari ta'sir qilishini qayd etadi^[2].

Ilmiy manbalarni tahlil qilish asosida aytish mumkinki, ingliz tili darslarida faqat grammatik bilimlarni berishga asoslangan an'anaviy yondashuv o'quvchilarning uzoq muddatli qiziqishini har doim ham ta'minlay olmaydi. Buning o'rniga kommunikativ yondashuv, interfaol metodlar va amaliy faoliyatga asoslangan mashg'ulotlar o'quvchilarning darsdagi faolligini oshirish imkonini beradi^[6]. Shuningdek, ichki va tashqi motivatsiyaning o'zaro bog'liqligi ta'lim jarayonida alohida ahamiyatga ega. Deci va Ryan tomonidan ishlab chiqilgan o'zini o'zi belgilash nazariyasiga ko'ra, o'quvchining mustaqilligi, o'z qobiliyatlariga ishonchi va ijtimoiy qo'llab-quvvatlanishi ichki motivatsiyaning rivojlanishiga yordam beradi^[3]. Shu bilan birga, baholash, rag'batlantirish va kelajakdagi maqsadlar kabi tashqi omillar ham o'quvchini faol harakat qilishga undashi mumkin.

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, zamonaviy ta'limda o'qituvchi faqat bilim beruvchi emas, balki motivatsion muhit yaratuvchi shaxs sifatida namoyon bo'ladi. O'qituvchining ijobiy munosabati, o'quvchilarning xatolariga to'g'ri yondashuvi va individual imkoniyatlarini hisobga olishi ingliz tilini o'rganish jarayoniga ijobiy ta'sir ko'rsatadi^[5].

Shu asosda ingliz tili ta'limida motivatsiyani oshirish uchun quyidagi pedagogik tavsiyalarni ilgari surish mumkin:

- o'quvchilarning shaxsiy qiziqishlari va ehtiyojlarini hisobga olgan holda darslarni tashkil etish;
- amaliy muloqotga yo'naltirilgan topshiriqlardan foydalanish;
- interfaol va raqamli texnologiyalarni dars jarayoniga kiritish;
- o'quvchilarga mustaqil tanlov va ijodiy fikrlash imkoniyatini berish;
- ijobiy baholash va konstruktiv fikr-mulohazalar orqali rag'batlantirish.

Demak, ilmiy adabiyotlar tahlili asosida motivatsiya ingliz tilini o'rganish jarayonining ajralmas qismi ekanligi ko'rinadi. O'quvchilarda barqaror qiziqish shakllantirish uchun ichki va tashqi motivatsiya omillaridan muvozanatli foydalanish hamda zamonaviy pedagogik yondashuvlarni qo'llash zarur.

XULOSA

Ingliz tilini o'rganishda motivatsiya o'quvchining faoliyati va ta'lim natijalariga bevosita ta'sir ko'rsatadigan muhim omillardan biridir. Xorijiy tilni egallash uzoq muddatli va muntazam mehnat talab qiluvchi jarayon bo'lgani sababli, o'quvchilarda barqaror qiziqish va maqsad shakllantirish zarur. Ilmiy manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, ichki motivatsiya o'quvchining mustaqil bilim olishga bo'lgan ehtiyojini kuchaytirsa, tashqi motivatsiya dastlabki bosqichlarda faoliyatni rag'batlantirish vazifasini bajaradi. Ushbu ikki motivatsiya turining uyg'unlashuvi ingliz tilini samarali o'rganish uchun qulay sharoit yaratadi. Zamonaviy ta'lim jarayonida o'qituvchi motivatsiyani shakllantiruvchi asosiy shaxs sifatida namoyon bo'ladi. Darslarni qiziqarli tashkil etish, interfaol metodlardan foydalanish, raqamli vositalarni joriy etish va o'quvchilarga ijobiy fikr-mulohaza berish ularning til o'rganishga bo'lgan munosabatini yaxshilaydi.

Shunday qilib, ingliz tili ta'limida motivatsiyani rivojlantirish nafaqat o'quvchilarning bilim darajasini oshiradi, balki ularning mustaqil fikrlashi, muloqot qobiliyati va kelajakdagi kasbiy faoliyatiga tayyorgarligini ham ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Gardner R. C. Social Psychology and Second Language Learning: The Role of Attitudes and Motivation. London: Edward Arnold, 1985. – 208 p.
2. Dörnyei Z. Motivational Strategies in the Language Classroom. Cambridge: Cambridge University Press, 2001. – 155 p.
3. Deci E. L., Ryan R. M. Intrinsic Motivation and Self-Determination in Human Behavior. New York: Plenum Press, 1985. – 371 p.
4. Dörnyei Z. The Psychology of the Language Learner: Individual Differences in Second Language Acquisition. Mahwah, New Jersey: Lawrence Erlbaum Associates, 2005. – 270 p.
5. Harmer J. The Practice of English Language Teaching. 5th Edition. Harlow: Pearson Education Limited, 2015. – 446 p.
6. Richards J. C., Rodgers T. S. Approaches and Methods in Language Teaching. 3rd Edition. Cambridge: Cambridge University Press, 2014. – 410 p.
7. Brown H. D. Principles of Language Learning and Teaching. 5th Edition. White Plains, NY: Pearson Education, 2007. – 410 p.
8. Ellis R. The Study of Second Language Acquisition. Oxford: Oxford University Press, 1994. – 824 p.
9. Ushioda E. Language Learning Motivation: An Ethical Agenda for Research. Oxford: Oxford University Press, 2020.



10. Oxford R. L. Language Learning Strategies: What Every Teacher Should Know. Boston: Heinle & Heinle Publishers, 1990. – 342 p.
11. Kukulska-Hulme A., Shield L. An Overview of Mobile Assisted Language Learning: From Content Delivery to Supported Collaboration and Interaction. ReCALL, 2008. Vol. 20(3). P. 271–289.
12. Godwin-Jones R. Emerging Technologies: From Mobile Apps to Wearable Devices. Language Learning & Technology, 2017. Vol. 21(3). P. 3–17.
13. Council of Europe. Common European Framework of Reference for Languages: Learning, Teaching, Assessment – Companion Volume. Strasbourg: Council of Europe Publishing, 2020.
14. Jalolov J. J. Chet til o'qitish metodikasi. Toshkent: O'qituvchi, 2012.
15. Saydaliyev S. S. Chet til o'qitish metodikasidan ocherklar. Namangan: NamDU nashriyoti, 2004.
16. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. Xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish bo'yicha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida. PQ-5117-son qarori, 2021-yil 19-may. <https://lex.uz/uz/docs/-5426736>
17. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. 2022-2026-yillarda xalq ta'limini rivojlantirish bo'yicha Milliy dastur to'g'risida. PF-134-son Farmoni, 2022-yil 11-may. <https://lex.uz/ru/docs/-6008663>

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №8(2)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.